

# Yashil

IQTISODIYOT  
TARAQQIYOT  
va

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2  
0  
2  
4

No 2



- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'sratish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja  
ISSN: 2992-8982



# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Elektron nashr. 598 sahifa.

E'lion qilishga 2024-yil 29-fevralda ruxsat etildi.

Muharrir:

Qurbanov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri

Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinosari

Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Majlisi qonunchilik palatasi deputati

Axmedov Sayfullo Normatovich i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori

Xudoqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YoMMMB birinchi prorektori

Abduraxanova Guinora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori

Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU professori

Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori

Axmedov Ikrom Akramovich, i.f.d. TDIU professori

Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., profesor

Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, i.f.d., TDIU professori

Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori

Musyeva Shoira Azimovna, SamDu IS instituti professori

Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinosari

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., TAQU katta o'qituvchisi

Xalikov Suyun Ravshanovich, i. f. n., TDAU dotsenti

Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti

Fayziyev Oybek Raximovich, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti

Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Uteyev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokururasi boshqarma boshlig'i o'rinosari

Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokururasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i

Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, i.f.d., TMI dotsenti

Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi,  
O'zR Bosh prokururasi huzuridagi IJQK departamenti.



# MUNDARIJA

Ilm-fanga baxshida umr .....	8
<b>Baxtiyor Islamov</b>	
Kichik biznesni rivojlantirishda "yashil" iqtisodiyotni keng tatbiq qilishning ahamiyati .....	10
<b>Gulnora Abdurahmonova Kalandarovna, Sanjar Baxodirovich G'oipnazarov</b>	
Brand Capital as a Determinant of Institutional Prestige and Student Choice in the Higher Education System ...	16
<b>Zufarova Nozima Gulamiddinovna</b>	
Inson va atrof-muhit dialektikasi: nomutanosiblik ko'rsatkichlari va ekologik muammolar .....	24
<b>Butaboyev Maxammadjon Tuychiyevich, Maxmudov Nosir Maxmudovich</b>	
Yashil budgetlashtirish va uni O'zbekistonda joriy etish istiqbollari .....	30
<b>Meyliev Obid Raxmatullayevich, Gofurova Kamola Xayrulla qizi</b>	
Iqtisodiyotda ta'lim va fan integratsiyasining asosiy yo'nalishlari .....	35
<b>Yormatov Ilmidin Toshmatovich</b>	
Transport vositalari va yo'llar turizm transport infratuzilmasini rivojlantirishning muhim omilidir .....	39
<b>Agzamov Shaxboz Akmalovich</b>	
Bank xizmatlarini raqamlashtirish orqali samaradorligini oshirish .....	44
<b>A. X. Salamov</b>	
Biznes-reja baliqchilik xo'jaligi rivojlanishi uchun asos sifatida .....	48
<b>Dosmuratova Shaxista Kengashovna</b>	
Mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligi va uning lizing munosabatlari rivojlanishi bilan bog'liqligi .....	55
<b>Axmediyeva Aliya Toxtarova</b>	
Turizmni rivojlantirish imkoniyatlari .....	63
<b>Ziyadullayev Ilhom Narkabilovich</b>	
Tijorat banklari depozit operatsiyalari samaradorligini oshirish muammolari va ularni bartaraf etish yo'llari.....	67
<b>Shamsiyev Nodir Muratovich</b>	
Hududlarni rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarning samaradorligini oshirish masalalari.....	72
<b>Shagazatov Oybek bahodirovich</b>	
Hududlar biznes muhitini rivojlantirish va samarali boshqarish yo'nalishlari .....	76
<b>Davlatov Sanjar Abdimannonovich</b>	
Ijtimoiy rivojlanish xulq-atvor paradigmasida yoshlarning tadbirkorlik faoliyatini tartibga solishning nazariy asoslari .....	80
<b>Mirzatov Baxtiyor Toxirovich</b>	
Korxonalar innovatsion faoliyatida raqamli transformatsiyaning muhim yo'nalishlari .....	84
<b>Yuldasheva Kamola Miraliyevna</b>	
O'zbekistonda agroturizmni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish (Buxoro viloyati misolida) .....	89
<b>Yoriyeva Farangiz Murodillayevna</b>	
Innovatsion tadbirkorlik muhitini kompleks baholashda xalqaro tashkilotlar tajribasi.....	94
<b>Nazarova Umida Avazovna</b>	
Turizm faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish samaradorligini oshirishning ayrim usullari .....	98
<b>Mirzaxodjayev Alisher Botirovich</b>	
Globallashuv sharoitida transchegaraviy suv resurslardan samarali foydalanishni boshqirish .....	103
<b>Mirzayev Musurmon Umidullayevich</b>	
Surxondardon viloyati iqtisodiyotida kichik biznes va tadbirkorlikning o'rni va ahamiyati .....	108
<b>Fayziyeva Aziza Azamat qizi</b>	
Ta'lim muassasalarida xarajatlarni moliyaviy nazorat etishning samaradorligi tahlili .....	113
<b>Eshonqulov Davlatjon Rajabboyevich</b>	
Ta'minot zanjirini boshqarishda transport logistikasi usullarini takomillashtirish .....	119
<b>Zoxidova Nazokat Berdimurot qizi</b>	
Blokcheyn texnologiyasida xavfsizlik masalalari .....	123
<b>Mamadiyarov Zokir Toshtemirovich</b>	
Развитие цифровой трансформации банковского сектора Республики Узбекистан .....	129
<b>Абдурахманова Матлуба Махамадаминовна</b>	

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ



Asosiy fondlarni hisoblash va baholash usullarini takomillashtirish istiqbollari.....	135
<b>Rixsimbayev Odiljon Qobiljonovich</b>	
Marketingda tovar harakati tizimini optimallashtirish va modellashtirish.....	141
<b>Sherzod Xolmurodovich Pardayev, Kamola Abdujabborovna Pardayeva</b>	
Iqtisodiy rivojlanish uchun strategik taqsimlash strategiyalari:	
Investitsion Fond Portfellarning qiyosiy tahlili.....	148
<b>Sultonboeva Munira bahodirovna</b>	
Soliq munosabatlarining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati: ilmiy-nazariy qarashlar.....	154
<b>Axrorov Zarif Oripovich, Saidmurodov Feruz Sodiqjon o'g'li</b>	
Vzaimosvazъь инвестиционной стратегии с оценкой эффективности инвестиционного проекта .....	159
<b>С. С. Алиева, А. Назаров</b>	
Erkin iqtisodiy zonalarning faoliyati va boshqaruv mexanizmini takomillashtirish.....	167
<b>Sheraliyeva Saida Azatovna</b>	
Xizmat safari xarajatlari hisobining huquqiy asoslari .....	170
<b>Ergashev Sarvar Xudoynazarovich</b>	
Инклюзивное образование и его особенности.....	175
<b>Зайнутдинова Умидा Джалоловна</b>	
Jismoniy shaxslarning mol-mulk va yer soliqlarini hisoblash va undirish samaradorligini oshirish yo'llari.....	179
<b>Qurbanov Muxiddin Abdullayevich</b>	
Mamlakatda soliq qarzdorligi vujudga kelishining asosiy sabablari va ularni qisqartirish yo'llari.....	184
<b>Hakimov Ulug'bek Furqat o'g'li</b>	
Mulk qiymatini baholash tushunchasi, baholash obyektlari, baholanadigan qiymat turlari.....	188
<b>Izbosarov Boburjon Bahriiddinovich, Yoqubboyev Ilhomjon G'ulomjon o'g'li</b>	
O'zbekistonda sug'urta xizmatlarining zamonaviy transformatsiyasi.....	193
<b>G. Adilova</b>	
Biznes subyektlarida samaradorlik masalalarini o'yinlar nazariyasi usuli bilan baholash.....	197
<b>Mardiiev Nurali</b>	
Yengil sanoatda "lean production" konsepsiyasini tatbiq etishning amaliy jihatlari.....	203
<b>Yaxyayeva Inobat Karimovna</b>	
Soliq salohiyatini baholash usullari va ularning tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga ta'siri tahlili .....	207
<b>Borotov Sharofiddin Jumaqul o'g'li</b>	
Ko'chmas mulk bozorini baholashning institutsional asoslari .....	213
<b>Ishonqulov Nizamjon Fayzullayevich</b>	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida turizm xizmatlarini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari.....	221
<b>Amriyeva Shaxzoda Shuxratovna</b>	
O'zbekistonning bank-moliya tizimi hamda unda Islom moliyasi instrumentlarini jalb etishdagi joriy tendensiyalar .....	226
<b>Eshimov Alisher Dusmurodovich</b>	
Tashqi savdoda notarif usullarni qo'llashning iqtisodiy oqibatlarini aniqlash metodologiyasi (rivojlangan davlatlar tajribasi) .....	234
<b>Norqobilov Akobir Iso o'g'li</b>	
Reklama xizmatlari va uning subyektlar samaradorligini oshirishdagi imkoniyatlari.....	240
<b>Rabbimov Elbek Abdulloyevich</b>	
Ijtimoiy siyosatni amalga oshirishda sog'lioni saqlash tizimini moliyalashtirish asoslari .....	245
<b>Imonqulov Nuriddin Qo'shmon o'g'li</b>	
Tijorat banklari biznes ekotizimini rivojlantirishning nazariy asoslari.....	250
<b>Shoymardonov Orziqul Jo'ra o'g'li</b>	
Majburiy tibbiy sug'urtaning vujudga kelishi va o'ziga xos xususiyatlari.....	256
<b>Kenjayev Soxib Sayfiyevich</b>	
O'zbekiston Respublikasida zamonaviy soliq ma'murchiligini joriy etish orqali budget-soliq siyosati samaradorligini yanada oshirish.....	260
<b>Yuldasheva Shaxnoza Xojiakbar qizi</b>	
Jahon iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida derivativlar bozorining roli .....	266
<b>Shokirov Mirkamol Mirolim o'g'li</b>	
Boshqaruv hisobida mas'uliyat markazlarini tashkil etish masalalari.....	274
<b>Sobirov Otabeck Olimjonovich</b>	



Davlat moliyasini boshqarishda moliyaviy nazorat usullaridan samarali foydalanish yo'llari .....	277
<b>Kultayev Farxod Shavkatovich</b>	
Tijorat banklari foydasi va rentabilitik ko'rsatkichlariga ta'sir etuvchi omillar tahlilini takomillashtirish .....	281
<b>Normo'minov Temurbek Sheraliyevich</b>	
O'zbekiston Respublikasida tijorat banklari aktivlar sifatini oshirish yo'llari .....	284
<b>To'ychiyev Otabek Shamshihevich</b>	
Vençur kapitalining mohiyati va O'zbekistonda vençur tizimini rivojlantirishning institutsional asoslari.....	288
<b>Tadjibayeva Nigora Gulomjonovna</b>	
Innovatsiyalar: zamonaviy iqtisodiyot uchun innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash zarurati.....	293
<b>Malikova Dilrabo Muminovna, Tursunov Jahongir Ulug'bek o'g'li</b>	
Budjet daromadlarining shakllanishida egri soliqlarning ta'sirini ko'p omilli ekonometrik modellashtirishda tahlil qilish.....	297
<b>Abdunazarova Shahnoza Norqo'chqor qizi</b>	
Aksiyadorlik jamiyatlarida investitsion jozibadorlikni oshirish yo'llari.....	302
<b>Abdullahayev Boburjon Akbaralievich</b>	
Barcha tadbirkorlik subyektlariga teng raqobat sharoitini yaratishda soliq imtiyozlarining o'rni .....	306
<b>Akbarov Akmalxon Akrom o'g'li</b>	
Hisob siyosati va unda biologik aktivlar hisobini yoritib berish tartibini takomillashtirish .....	310
<b>Mirzayeva Nargiza Batirovna</b>	
Talabalarning oilali bo'lishiga ta'sir etuvchi omillarga iqtisodiy baholashda yangicha yondashuv.....	314
<b>O. U. Shomurodov, A. A. Suyarov, Z. U. Uroqov, J. S. Urazov, A. T. Ablahatov</b>	
Ways to Use the Experience of Foreign Countries in Creating a Beneficial Business Environment for Entrepreneurship And Improving Taxation .....	319
<b>Mukhlisa Ikramova</b>	
Aholi turmush darajasini oshirishda moliyaviy savodxonlikning o'rni va iqtisodiy rivojlanishga ta'siri .....	325
<b>Yusupov Muhammadali Sohib o'g'li, J.D. Xojiyev</b>	
Temir yo'l sanoat korxonalarida ijtimoiy-mehnat munosabatlarini boshqarish bo'yicha xorijiy tajriba.....	329
<b>Kadirova Sharofat Amonovna</b>	
Механизм внедрения аутсорсинговой деятельности в АО "Ўзтемирийўлайўловчи" .....	332
<b>H. З. Кахарова</b>	
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish investitsiyalarni jalb qilishda xorijiy mamlakatlar tajribasi .....	337
<b>Sharipov Bobur Anvar o'g'li</b>	
"STEKLOPLASTIK" MJCHning bozordagi strategik holatini tahlil qilish .....	342
<b>Musyeva Shoiria Azimovna</b>	
Agrar sektorda ekologik toza mahsulotlarni ishlab chiqarishning nazariy masalalari.....	348
<b>M. Sh. Nazarova, Z. S. Kazakova</b>	
Methodological Foundations of Bank Lending and Classification of Factors Affecting the Features of Obtaining Loans.....	353
<b>Raxmanova Laylo bahodirovna, A. Karimova</b>	
Agrosanoat klasterlarda tovar-moddiy zaxiralar samaradorligiini KPI orqali baholash uslubiyati .....	357
<b>Toshpo'latov Azizbek Shermuxamadovich</b>	
Fao tadbirkorlar faoliyatida kambag'al oilalarni iqtisodiy-ijtimoiy holatini yaxshilash imkoniyatlari .....	362
<b>Salamov Ibrohim, Nazarova Maryam Sharifovna, Kazakova Zulayxo Saloxiddinovna, Jonibekov Faxriddin Beknazarovich, Kudratov Rizo Turdibayevich, Ulmasova Oygul Baxtiyorovna, Xamdamova Nasiba Ablakulovna, Xudayberdiyeva Ma'rifikat Umarovna</b>	
Xo'jalik yurituvchi subyektlar strategiyasi tahlilining o'ziga xos xususiyatlari .....	369
<b>Tursunova Shaxnoza Farxod qizi</b>	
Процессы цифровизации АО "Худугазта'minot" .....	373
<b>Хусанов Каҳрамон Нишонович</b>	
O'zbekistonda aholi turmush darajasini oshirish yo'llari.....	378
<b>Abdullahayeva Madina Kamilovna, Eldorbekov G'ofurbek Iskandarbek o'g'li</b>	
Aholi farovonligini oshirishda tadbirkorlik subyektlari uchun kredit tizimini takomillashtirish mexanizmi .....	381
<b>Bobayev Isroijon Abdinabiyevich</b>	
Mamlakatga jalb qilingan xorijiy kapitalning tovarlar va xizmatlar importi salohiyatiga ta'sirini ekonometrik modellar bilan baholash.....	386
<b>Saydullayev Azamat Jo'raqul o'g'li</b>	



O'zbekistonda bank xizmatlari raqobatbardoshligini baholash mazmuni va o'ziga xos xususiyatlari.....	394
<b>Sh. Madraimov</b>	
Kapital bozorida sug'urta kompaniyalar institutsional investor sifatida .....	397
<b>Xasanova Lola Mamasharifovna</b>	
Yangi O'zbekiston strategiyasida institutsional islohotlarni yanada chuqurlashtirish va ko'p funksiyali raqamlashtirishning ilmiy asoslari .....	400
<b>B. B. Berkinov</b>	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari orqali jinoiy yo'l bilan olingan daromadlarni legallashtirish mexanizmlari.....	409
<b>G'afurov Umidjon Bahodir o'g'li</b>	
Rivojlangan mamlakatlarda keksa fuqarolarning bandligini oshirish kam ta'minlangan aholi qatlamini qo'llab-quvvatlash usuli sifatida (Yaponiya tajribasi misolida).....	413
<b>Karimov Bekzodjon Ilhomovich</b>	
Tashqi savdoni oshirishda boj-tarif siyosatini takomillashtirish mexanizmlari .....	420
<b>Pardayev Ilhomjon G'ulomjon o'g'li</b>	
Финансы или корпоративные финансы .....	426
<b>Уринов Бобур Насиллоевич</b>	
In Ensuring Economic Development in the Country Green Economy and its Features .....	432
<b>Akhunova Shakhistikhon Nomonjanovna, Abdusattorova Mokhirabonu Abdugovpor kizi</b>	
Tijorat banklarining investitsiya faoliyatini rivojlantirish yo'nalishlari .....	437
<b>Jo'rayev O'ktam Panji o'g'li</b>	
Сокращение уровня бедности в Узбекистане.....	443
<b>Амирджанова Ситора Суннат кизи</b>	
Paxtachilik sohasida ishlab chiqarish jarayonlari samaradorligini oshirishning innovatsion yechimlari va uning foydaga ta'sirini baholash .....	448
<b>S. B. Inoyatov</b>	
Tijorat banklarida muammoli kreditlar bilan ishslash amaliyotidagi muammolar va ularni barataraf etish yo'llari .....	453
<b>Maxmudov Rahimjon Hamid o'g'li</b>	
Mahalliy budjet daromadlarining nazariy va ilmiy asoslari .....	460
<b>Ollokulova Feruza Mansurovna</b>	
Kambag'allikni qisqartirish – aholi turmush farovonligini ta'minlashning muhim omili .....	463
<b>Usmanov Baxodir Baxtiyorovich</b>	
Raqamli marketingni rivojlantirish zaruriyatি .....	469
<b>Xalmuxamedova Zeboxon Babaxanova</b>	
Tijorat banklari o'rtaqidagi raqobatni rivojlantirish orqali fond bozorida aksiyalar narxini barqarorligini ta'minlash istiqbollari .....	473
<b>M. Yuldasheva</b>	
Konchilik sanoati korxonalarida innovatsion faoliyatni rivojlantirish mexanizmlarining ilmiy-nazariy asoslari .....	480
<b>Kurbanova Mehriniso Nematjanovna</b>	
O'zbekistonda banklar moliyaviy xizmatlari va ular sifatining amaldagi holati tahlili .....	487
<b>Mirzayev Mirza Abdullayevich</b>	
Oliy ta'lim muassasalarining iqtisodiy samaradorlikning raqobatbardoshligini instituttsional tahlil qilish mexanizmi .....	492
<b>Saydullayeva Saodat Abdumajidovna</b>	
Integrasiya sharoitida to'qimachilik sanoatining rivojlanishi .....	499
<b>Ziyayeva Muhtasar Mansurdjanovna</b>	
Auditorlik tekshiruvini tashkil etish va o'tkazish jarayonlarini takomillashtirish .....	503
<b>Karamatova Noiba Husnitdinovna</b>	
Davlatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning nazariy jihatlari .....	510
<b>Mamatov Mamajan Axmadjonovich</b>	
Экономическое сознание и экономическое мышление: теоретический анализ.....	517
<b>Пардаев Мамаюнус Каршибаевич, Мухаммедов Мурод Мухаммадович</b>	
O'zbekiston respublikasi tijorat banklari tomonidan qurilish korxonalarini kreditlashni takomillashtirish yo'llari .....	522
<b>Sultanov Baxram Begdullayevich</b>	



Роль искусственного интеллекта в современных технологиях медиаобразования в высших учебных заведениях.....	526
Самигова Гуландом Абдулжаббаровна	
Talabalarga moliyaviy yordam dasturlari va ularning ta'lrim sifatiga ta'siri .....	534
Mirzayeva Muhlisa Ubaydullo qizi	
Mintaqaviy investitsion jozibadorlik va investitsion siyosat: nazariy talqin .....	539
Muminov Akmal Tulkunovich	
Mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida oliy ta'lim tizimining ta'siri .....	543
Nasimov Adiz Azamat o'g'li, Baxtiyorova Jasmina Jasurovna, Axrorov Zarif Oripovich	
Respublikada fermer xo'jaliklarga xizmat ko'rsatishni rivojlantirish va agroizmatlar bozorini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash imkoniyatlari .....	548
Shukurov Ilxom Safarboyevich	
Turli mamlakatlarda oliy ta'limni moliyalashtirish yo'llari .....	555
Umarova Moxigul Maxmayunus qizi	
Dehqonchilikni innovatsion asosda rivojlantirishning xorijiy tajribasi .....	560
Yuldashev G'iyos Turabekovich	
Tijorat bank xizmat turlarini islomiy bank xizmatlari orqali rivojlantirish istiqbollari .....	564
Bayjanova Gozzal Sarsengaliyevna	
Qishloq xo'jaligi mahsulotini baholash va hisobga olishning uslubiy jihatlarini takomillashtirish .....	570
Boltayev Abror Sayitmuradovich	
Секреты интересного урока в начальной школе.....	577
Гараева Олеся Владимировна	
Iqtisodiyotni barqaror rivojlanishda yashil iqtisodiyotning o'rni.....	580
Ibragimova Gulchehra Toxirovna	
Mahsulot va xizmatlarni raqamli transformatsiyasini amalga oshirish algoritmi.....	584
Kucharov Abrorjon Sobirjanovich, Bobojonov Azizjon Babaxanovich, Abdurakhmonov Abdumalik Abdurashidovich	
O'zbekiston Respublikasining soliq tizimi mamlakatda yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirish vositasi sifatida.....	591
Nabiiev Feruz Nurmurodovich	



# IQTISODIYOTDA TA'LIM VA FAN INTEGRATSIYASINING ASOSIY YO'NALISHLARI

**Yormatov Ilmidin Toshmatovich**

Iqtisodiyot fanlari nomzodi,  
Farg'onan politexnika instituti Menejment kafedrasi dotsenti



**Annotatsiya:** Ushbu maqolada iqtisodiyotni muvaffaqiyatli rivojlantirish uchun ta'lim va fan o'rtaqidagi hamkorlikning ahamiyati o'rganilan. Muallif iqtisodiyotda ta'lim va fan integratsiyasining o'zaro ta'siri innovatsiyalarga, barqaror iqtisodiy rivojlanish va iqtisodiy bilimlarni shakllantirish kabi turli jihatlarini ko'rib chiqadi. Shuningdek, maqolada O'zbekistonning bu boradagi tajribasi ko'rib chiqilib, ta'lim va ilm-fan muvaffaqiyatli integratsiyalashuvining asosiy omillari aniqlangan.

**Kalit so'zlar:** innovatsiya, barqaror rivojlanish, yashirin iqtisodiyot, hamkorlik, ta'lim, fan, iqtisodiyot, integratsiya, muvaffaqiyat, tajriba.

**Abstract:** In this article, the article explores the importance of cooperation between education and science for successful economic development. The author considers various aspects of the interaction of the integration of education and science in the economy, such as innovation, sustainable economic development and the formation of economic knowledge. Also, the article examines the experience of Uzbekistan in this regard and identifies the main factors of successful integration of education and science.

**Key words:** innovation, sustainable development, hidden economy, cooperation, education, science, economy, integration, success, experience.

**Аннотация:** В данной статье исследуется значение сотрудничества образования и науки для успешного экономического развития. Автор рассматривает различные аспекты взаимодействия интеграции образования и науки в экономике, такие как инновации, устойчивое экономическое развитие и формирование экономических знаний. Также в статье рассматривается опыт Узбекистана в этом отношении и определяются основные факторы успешной интеграции образования и науки.

**Ключевые слова:** инновации, устойчивое развитие, скрытая экономика, сотрудничество, образование, наука, экономика, интеграция, успех, опыт.

## KIRISH

Zamonaviy dunyoda ta'lim va ilm-fanning integratsiyalashuvi iqtisodiyot hamda jamiyat taraqqiyotida tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ta'lim va ilm-fan har qanday davlatning muvaffaqiyati va raqobatbar-doshligini belgilovchi ikkita asosiy komponentdir. Ularning o'zaro ta'siri innovatsiyalar, iqtisodiy o'sish va ijtimoiy taraqqiyot uchun qulay muhit yaratishi mumkin. Ta'lim mehnat bozorining tez o'zgaruvchan sharoitlariga moslasha oladigan va innovatsion rivojlanish jarayonida faol ishtirok eta oladigan malakali mutaxassislarini shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Fan, o'z navbatida, taraqqiyotning dvigateli bo'lib, yangi texnologiyalarni yaratish, mavjudlarini takomillashtirish va hozirgi davrning dolzarb muammolariga javob topish imkonini beradi [1; 81-86].

Iqtisodiyotda ta'lim va fanning integratsiyasi faoliyatning turli sohalarida yuqori natijalarga erishishning qudratli vositasidir. Ta'lim muassasalari va ilmiy muassasalar o'rtaqidagi o'zaro hamkorlik bilim, tajriba va innovatsiyalar almashinuviga yordam beradi, bu esa ta'lim sifatini oshirish, ilmiy tadqiqotlarni takomillashtirish va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishga xizmat qiladi.

## ADABIYOTLAR TAHЛИLI

Ta'limda integratsion yondashuvning zarurati: O'zbekiston Respublikasini rivojlantirish to'g'risidagi "Harakatlar strategiyasi"ning "Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari" deb nomlangan 4-qismining 4.1. bandida yaqin besh-yilda aholini ish bilan bandligi va real daromadlarini izchil oshirish, buning uchun esa



"yangi ish o'rinlarini yaratish hamda aholining, eng avvalo, o'rtalik maxsus va oliy o'quv yurtlari bitiruvchilari bandligini ta'minlash"<sup>[2]</sup> kabi vazifalar belgilab qo'yilgan edi.

Sh.M.Mirziyoyevning "Yangi O'zbekiston strategiyasi" nomli asarida sifatli ta'lif – inson kapitalini rivojlanishning hal qiluvchi omili to'g'risida gapirib, bunda uzlusiz ta'lif tizimi uchun milliy o'quv dasturini joriy etish, ta'lif sifatini oshirish va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash masalalariga alohida e'tibor berib o'tgan<sup>[3; 464 b.]</sup>. Bu masalalarni bugungi mehnat bozori tamoyillari asosida hal etishda "fan-ta'lif-ishlab chiqarish" innovatsion hamkorligini amalga oshirish muhim masalalardan biri hisoblanadi.

Xususan, davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev raisligida joriy yilning 16-iyun kuni oliy ta'lif tizimidagi ustuvor vazifalarga baq'ishlangan videoselektor yig'ilishida 4 ta ustuvor vazifani ko'rsatib o'tdi:

*Birinchisi* – oliy ta'irn muassasalarini boshqaruv kengashlarining rolini oshirish va kafedralar vakolatlarini kengaytirish.

*Ikkinchisi* – o'quv jarayonini bozor talablariga moslashtirib, ishlab chiqarish bilan uzviyigini ta'minlash va talabaning o'z ustida ishlashi uchun muhit yaratish.

*Uchinchisi* – oliy ta'lif muassasalarining ilmiy salohiyatini oshirish, ilm-fan va innovatsiyani rivojlantirish.

*To'rtinchisi* – professor-o'qituvchilar va talabalar uchun qog'ozbozlikni kamaytirish, sohani raqamlashtirish orqali byurokratiya va korrupsiyanı keskin qisqartirish. Bu vazifalarni samarali bajarish uchun oliy ta'lif muassasalariga akademik va tashkiliy-boshqaruv bo'yicha mustaqil qaror qabul qilish vakolati berilishi ta'kidlandi va amalyotga tattbiq etilmoqda.

Shuningdek, integratsiyalashgan ta'lif-tarbiya, fanlararo aloqalarning ayrim jihatlari mashhur pedagoglarning (Y. Komenskiy, O. Lokk, I. Gerbart, M. Pestalossi, K. Ushinskiy va boshq.), didaktiklarning (Zverev, MA Oanilov, V.N. Maksimova, S.P. Baranova, M.N. Skatkin va boshq.), psixolog olimlarning (E.N. Kabanova, Meller, N.F. Talizina, Y.A. Samarina, G.I. Vergeles), medist olimlarning (M.R. Lvov, V.G. Goreskiy, N.N. Svetlovskaya, Y.M. Kolagin, G.N. Pristupova) ishlarida ko'rib chiqilgan<sup>[4; 215-217]</sup>.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotni amalga oshirishda ilmiy mushohada, statistik jadvallardan, qiyosiy tahlil, ma'lumotlarni guruhlash, abstrakt-mantiqiy fikrlash, induksiya va deduksiya usullaridan foydalangan holda iqtisodiyotni muvaffaqiyatli rivojlantirish uchun ta'lif va fan o'rtafiga hamkorlikning ahamiyati va boshqa ularning asosiy jihatlarini aks ettirish bo'yicha fikr va mulohazalar shakllantirildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Ta'lifning fan bilan integratsiyadagi roli. Ilmiy tadqiqotlar olib borish, innovatsiyalarni ishlab chiqish va amaliyotda qo'llashga qodir malakali mutaxassislarni shakllantirishning asosi hisoblanadi. Ta'lif talabalarga nafaqat nazariy bilimlarni, balki ilmiy sohada muvaffaqiyati ishlashlari uchun zarur bo'lgan amaliy ko'nikmalarini ham beradi. Ta'lifning fan bilan integratsiyalashuvidagi muhim rollaridan bira fanlararo yondashuvga ega bo'lgan mutaxassislarni tayyorlashdir. Zamonaviy ilm-fan olimlardan bilimlarning turli sohalarida ishlashni va murakkab muammolarni hal qilish uchun turli fanlarni birlashtira olishni talab qiladi. Ta'lif o'quvchilarga o'z sohasi bo'yicha nafaqat chuqur bilim, balki keng dunyoqarash, tanqidiy fikrash, axborotni tahlil qilish ko'nikmasini shakllantirishi kerak.<sup>[5; 118-124]</sup>

Bundan tashqari, ilmiy tadqiqotlarni rag'batlanirishda ta'lif muhim rol o'ynaydi. Universitetlar va boshqa o'quv muassasalarini ko'pincha ilmiy tadqiqot markazlarida talabalar va professor-o'qituvchilar yangi loyihalar ustida ishlaydi, innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqadi va kashfiyotlar qiladi. Ta'lif ilmiy ijodkorlik, fikr va tajriba almashish uchun qulay muhit yaratishga yordam beradi, bu esa ilm-fan rivojiga xizmat qiladi. Demak, ta'lifning fan bilan integratsiyadagi o'rni malakali mutaxassislarni tayyorlash, ilmiy izlanishlarni rag'batlanirish va fanlararo yondashuvni rivojlantirishdan iborat. Ta'lif ilm-fan bilan muvaffaqiyatli hamkorlik qilishning asosi bo'lib, zamonamizning dolzarb muammolarini hal qilishga qodir innovatsion jamiyatni yaratishda muhim rol o'ynaydi.

O'zbekistonda ilmiy tadqiqot faoliyati va ularni ishlab chiqarishga joriy qilish bilan faol shug'ullanayotgan bir qancha oliy o'quv yurtlari va boshqa ta'lif muassasalarini mavjud:

1. Toshkent davlat texnika universiteti – axborot texnologiyalari, informatika, elektronika va boshqa turdosh sohalarda ilmiy tadqiqot markazlari mavjud.
2. O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti – universitet tilshunoslik, tarjima, madaniyatlararo muloqot va boshqa til fanlari bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib boradi.
3. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti – iqtisod, moliya, biznes va boshqa ijtimoiy-iqtisodiy fanlar bo'yicha markaz va laboratoriylar mavjud.



Farg'ona politexnika institutida ham texnika va texnologiyaning turli yo'nalishlarida ko'plab ilmiy-tadqiqot va ishlamnalar olib borilmoqda. Institutda olib borilayotgan ilmiy tadqiqotning asosiy yo'nalishlari qatoriga quydagierni kiritish mumkin:

- Energetika va elektrotexnika: energiya tejovchi texnologiyalarni, muqobil energiya manbalarini, elektr energetika tizimlarini ishlab chiqish.
- Mashinasozlik va materialshunoslik: yangi materiallarni ishlab chiqish, metallni qayta ishlash texnologiyalari, zamonaviy asbob-uskunalar yaratish.
- Axborot texnologiyalari: dasturiy ta'minotni ishlab chiqish, axborot tizimlari, kompyuter tarmoqlari, kiberxavfsizlik.
- Qurilish va arxitektura: qurilish materiallari, qurilish texnologiyalari, arxitektura dizayni sohasidagi tadqiqotlar.
- Ekologiya va atrof-muhitni boshqarish: suv va havoni tozalash, chiqindilarni yo'q qilish, tabiiy resurslardan barqaror foydalanish usullarini ishlab chiqish.

Shuningdek, Ishlab chiqarishda boshqaruv fakulteti qoshida "Hudud ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga ko'maklashish ilmiy markazi" faoliyat olib bormoqda. Ushbu markaz oliy ta'lim muassasalarini, ayniqsa, olimlar va tadqiqotchilarini mamlakat va mintaqaga iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish bo'yicha milliy maqsadlarga erishishda ishtiroy etishiga qaratilgan. Hozirgi kunda iqtisodiyot, ijtimoiy hayot va atrof-muhitning turli yo'nalishlari bo'yicha tadqiqotlar olib borilmoqda, amaliyotda qo'llash uchun innovatsion yechimlar tavsiya qilishmoqda. Shuningdek, Markaz mahalliy kompaniya va tadbirkorlarni o'z mahsulot va xizmatlarini sotish uchun tovar birjalarini hamda elektron tijoratdan foydalanish orqali realizatsiya qilishni rag'batlantirish, qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini ishlab chiqish bo'yicha tadqiqotlar olib borish va ularni amaliyotda qo'llash yuzasidan tavsiyalar berilmoqda.

Iqtisodiyotda ilmiy tadqiqotlarning ahamiyati. Ilmiy tadqiqotlar zamonaviy iqtisodiyotda muhim o'r'in tutadi, chunki u innovatsiyalar rivojlanishiga, mehnat unumdonligini oshirishga, hayot sifatini yaxshilashga va barqaror iqtisodiy o'sishga yordam beradi. Iqtisodiyot sohasidagi ilmiy tadqiqotlar iqtisodiy hodisalarining sabablarini aniqlashga, tahlil va prognozlashning yangi usullarini ishlab chiqishga, innovatsion mahsulot va xizmatlarni yaratishga yordam beradi. Iqtisodiyotdagagi ilmiy tadqiqotlarning asosiy qadriyatlaridan biri iqtisodiy jarayonlarning rivojlanish qonuniyatlarini va tendensiylarini aniqlash qobiliyatidir. Ilmiy tadqiqotlar ma'lumotlarni tahlil qilish, eksperimentlar o'tkazish, modellar yaratish va prognozlar qilish imkonini beradi, bu esa iqtisodiy rivojlanish dinamikasini aniqroq tushunishga va asoslangan qarorlar qabul qilishga yordam beradi [6; 45-52].

Iqtisodiyotdagagi ilmiy tadqiqotlarning yana bir muhim roli innovatsiyalarni rag'batlantirishdir. Ilmiy tadqiqotlar yangi texnologiyalar, boshqaruv usullari, mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqishga ko'maklashadi. Bu esa korxonalar va umuman mamlakatning raqobatbardoshligini oshirishga yordam beradi. Ilmiy izlanishlar natijasida yaratilgan innovatsiyalar iqtisodiy o'sish, yangi ish o'rnlari yaratish, turmush darajasini oshirish va mahsulot sifatini yaxshilashning dvigateliga aylanishi mumkin.

Bundan tashqari iqtisodiyot sohasidagi ilmiy izlanishlar mehnat unumdonligini oshirishga yordam beradi. Ilmiy izlanishlar tufayli biznesni boshqarishning samarali usullari ishlab chiqiladi, ishlab chiqarish jarayonlari optimallashtiriladi, xarajatlar kamayadi va resurslardan foydalanish samaradorligi oshiriladi. Bu kompaniyalarga bozorda raqobatbardosh bo'lish imkonini beradi va ularning daromadlarining barqaror o'sishini ta'minlaydi [7].

Shunday qilib, ilmiy izlanishlar zamonaviy iqtisodiyotda muhim o'r'in tutib, innovatsiyalarni rivojlantirish, mehnat unumdonligini oshirish va turmush sifatini yaxshilashga hissa qo'shmaqda. Ular iqtisodiy jarayonlarning qonuniyatlarini aniqlashga yordam beradi, yangi texnologiyalar va boshqaruv usullarini ishlab chiqishni rag'batlantiradi, shuningdek, barqaror iqtisodiy o'sishga hissa qo'shadi. Ilmiy tadqiqotlarga investitsiyalar iqtisodiyot va butun jamiyat kelajagiga kiritilgan investitsiyalardir.

Ta'lim va fan integratsiyasi muammolari. O'zbekistonda ta'lim va fan integratsiyasi milliy ta'lim, fan va innovatsiya tizimini rivojlantirishga qaratilgan muhim strategik vazifadir. Biroq bu jarayon kerakli natijalarga erishish uchun bartaraf etilish kerak bo'lgan bir qator muammolar va to'siqlar mavjud. O'zbekistonda ta'lim va fan integratsiyasining asosiy muammolari va ularni bartaraf etishning mumkin bo'lgan yo'llarini ko'rib chiqamiz.

*Birinchi muammo* moliyaviy cheklavlardir. Ilmiy tadqiqotlar, ta'lim dasturlari, texnologik innovatsiyalar uchun yetarli mablag' ajratilmaganligi mamlakatda ta'lim va fanning rivojlanish sur'atlarini sekinlashtirishi mumkin [10; 45-51]. Muvaffaqiyatli integratsiya uchun ta'lim va fanga investitsiyalarni ko'paytirish, ilmiy tadqiqotlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish mexanizmlarini yaratish zarur.

*Ikkinci muammo* – olimlar va o'qituvchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning yetarli emasligi. Muvaffaqiyatli integratsiya olimlar, o'qituvchilar va talabalar o'rtasida faol hamkorlikni talab qiladi. Bilimlarni al mashish uchun platformalar yaratish, qo'shma loyihalar va tadqiqotlarni tashkil etish, o'quv seminarlari va mahorat saboqlari ko'rsalarini o'tkazish ta'lim va ilm-fan o'rtasidagi hamkorlikni yaxshilashga xizmat qiladi.



*Uchinchi muammo* – kadrlarning yetarli darajada emasligi. Muvaffaqiyatli integratsiya akademik bilimlarni amaliy tajriba bilan birlashtira oladigan yuqori sifatli mutaxassislarni talab qiladi. Pedagoglar, o'qituvchilar, ilmiy xodimlarni kasbiy tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini rivojlantirish, shuningdek, o'qitish va o'qitish uchun malaka oshirish va almashinuv dasturlarini yaratish zarur.

*To'rtinchi qiyinchilik* – normativ hujjatlar va tashkiliy to'siqlar. O'zbekistonda litsenziyalashning murakkab tizimi, universitetlar va ilmiy institutlar o'tasidagi o'zaro munosabatlarning moslashuvchan qoidalarining yo'qligi, ta'lif tizimidagi o'zgarishlarga yetarli darajada taylor emasligi bo'lishi mumkin. Mavjud me'yoriy-huquqiy hujjatlarni tahlil qilish, ta'lif va fan integratsiyasi jarayonini soddalashtirishga qaratilgan o'zgartirishlar kiritish zarur.

O'zbekistonda ta'lif va ilm-fanning muvaffaqiyatli integratsiyasi moliyaviy qo'llab-quvvatlash, kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirish, olimlar va o'qituvchilarning o'zaro hamkorligini yaxshilash, shuningdek, normativ hujjatlar va tashkiliy to'siqlarni bartaraf etishni o'z ichiga olgan kompleks yondashuvni talab qiladi. Bu jarayon milliy ta'lif va ilm-fan tizimini rivojlantirish, shuningdek, jahon miqyosida mamlakat raqobatbardoshligini oshirishdagi ahamiyatini anglash muhim ahamiyatga ega [11; 12].

Ta'lif va fanning iqtisodiyotga integratsiyalashuvi zamonaviy dunyoda muhim o'r'in tutadi, chunki bu mamlakatning barqaror rivojanishi hamda raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Ta'lif va ilm-fanni muvaffaqiyatli integratsiyalashuvining muhim omili moliyaviy qo'llab-quvvatlashdir. Moliyalashning yetarli emasligi tadqiqot, ta'lif dasturlari va innovatsiyalarni rivojlantirishga to'sqinlik qilishi mumkin. Shu bois ta'lif va ilm-fanga sarmoyalarni ko'paytirish, ilmiy tadqiqotlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va rag'battalantirish mexanizmlarini yaratish zarur.

Yana bir muhim jihat – olimlar, o'qituvchilar va talabalar o'tasidagi faol hamkorlikdir. Bilim almashish uchun platformalar yaratish, qo'shma loyihibar va tadqiqotlarni tashkil etish, o'quv seminarlari va mahorat saboqlarini o'tkazish ta'lif va fan o'tasidagi o'zaro hamkorlikni yaxshilashga xizmat qilmoqda.

Shuningdek, kadrlar tayyorlashga ham e'tibor qaratish lozim. Akademik bilimlarni amaliy tajriba bilan uyg'unlashtira oladigan yuqori malakali mutaxassislar ta'lif va fanni muvaffaqiyatli integratsiyalashuvida muhim ahamiyat kasb etadi. O'qituvchilar, pedagoglar va ilmiy xodimlarning kasbiy tayyorgarligi hamda mala-kasini oshirish tizimini rivojlantirish ko'zlangalarga erishishga yordam beradi.

Normativ va tashkiliy to'siqlar ham ta'lif va fanni integratsiyalashuvini qiyinlashtirishi mumkin. Shu bois, mavjud me'yoriy-huquqiy hujjatlarni tahlil qilish, integratsiya jarayonini soddalashtirishga qaratilgan o'zgartirishlar kiritish hamda universitetlar va ilmiy – tadqiqot institutlarning o'zaro hamkorligi uchun yanada moslashuvchan qoidalarni yaratish zarur. Umuman olganda, ta'lif va ilm-fanning samarali hamkorligi iqtisodiyotni rivojlantirish va aholi turmush darajasini oshirishning asosiy omili hisoblanadi. Shu bois mamlakatlar ta'lif va fan integratsiyasiga, ta'lif va ilmiy muassasalar o'tasida muvaffaqiyatli hamkorlik qilish uchun shart-sharoit yaratishga, shuningdek, innovatsiyalarni rag'battalantirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratishlari zarur.

#### Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Kozlov, A. I. (2015). Fan va ta'limning o'zaro ta'siri iqtisodiy rivojanish omili sifatida. G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universitetining axborotnomasi, (3), 81-86.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. (2017). 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi PF-4947-son farmoni. Xalq so'zi.
3. Sh.M.Mirziyoyev (2022) Yangi O'zbekiston Strategiyasi". –Toshkent. –“O'zbekiston” nashriyoti. –464 bet.
4. Yo'ldoshev, A. (2022). Uyg'onish davri va uchunchi renessans poydevori: vorisylirk va o'ziga xoslik. Markaziy Osiyo uyg'onish davri ilm-fan va madaniyatini tadqiq etishning dolzarb muammolari xalqaro ilmiy anjumani.
5. Abdurahmonov, Sh.X.(2018). Ta'lif va fan integratsiyasi O'zbekiston iqtisodiyotini samarali rivojlantirishning asosi sifatida. "Innovatsion iqtisodiyot" ilmiy-amaliy jurnali, (4), 118-124.
6. Aliev, A. X. (2019). O'zbekiston iqtisodiyotiga ta'lif va fanning integratsiyalashuvi tajribasi. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Axborotnomasi, (1), 45-52.
7. Temirov, U. A. (2018). Ta'lif va fan integratsiyasi Rossiya iqtisodiyotining innovations rivojanishining asosi sifatida. "Innovatsiya va sarmoya" ilmiy jurnali, (2), 96-102.
8. Sharipova, G. A. (2017). Raqamli iqtisodiyotda ta'lif va fan integratsiyasini rivojlantirish. Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti Axborotnomasi, (3), 112-118.
9. Gavrilova, E. N. (2019). Ta'lif va fanning o'zaro ta'siri barqaror iqtisodiy rivojanishning asosiy omili sifatida. Iqtisodiy strategiyalar, 4(1), 27-33.
10. Yermatov, I. T. (2019). К проблеме качества образования в высшем образовательном учреждении. Сборник материалов, 1, 541-544.
11. Yermatov, I. T. (2021). Ta'lif sifatini oshirishga qaratilgan ma'yoriy huquqiy hujjatlar va ularni ta'limda ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llashning ayrim masalalari.– 227-229.
12. Yormatov I. . (2022). Sifatli kadrlar tayyorlashdagi ayrim muammolar. Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры, 2(11), 83–86. извлечено от<https://www.in-academy.uz/index.php/ejsspc/article/view/4629>.

# Yashi

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2024. № 2**

© Materiallar ko'chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnalni manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnalni 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

**Jurnalning ilmiyligi:**

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnalni

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi  
rayosatining  
2023-yil 1-apreldagi 336/3-  
sonli qarori bilan ro'yxatdan  
o'tkazilgan.

